

SAMARQAND MADRASALARI VA UNDA UQITILGAN DINIY ILMLAR

SAMARKAND MADRASAS AND THE RELIGIOUS SCIENCES TAUGHT IN THEM

САМАРКАНДСКИЕ МЕДРЕСЕ И ПРЕПОДАВАЕМЫЕ В НИХ РЕЛИГИОЗНЫЕ НАУКИ

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Axborot Komunikatsiyasi

Temirova Sevara Sayfiddinovna

sohasida kasb ta'limi fakulteti AKT 23.02-guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Samarqand insoniyat sivilizatsiyasida muhim rol uynagani, tarix sahifalarida nomi zarhal harflar bilan yozilgan va uchmas iz qoldirganligi, Samarqand ilm-fan, ma'daniyat va san'at beshigi, ulug'vorlik, taraqqiyot va yuksalish timsoli ekanligi tadqiq etiladi. Bundan tashqari O'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan madrasalar va ularda o'qitilgan fanlar haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Madrasa, Samarqand, zarhal, ilm-fan, Buxoro, Mirzo Ulug'bek, adno, vaqf.

Madrasa-oliy o'quv dargohi. Diniy ilmlar qatorida matematika, notiqlik san'ati va mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik, falsafa, kalligrafiya, musiqa, tibbiyot, geografiya, astronomiyava boshqa ilmlar bo'yicha ta'lim beriladigan o'quv binosi. Arab tilidan olingan, dars o'tiladigan joy. Bu atama ta'lim berish uchun maxsus qurilgan o'quv binolarini ifodalaydi. Islomning ilk davrida, VII-VIII asrlarda Islom dini ulamolari masjidlarida va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berib turganlar. Din taraqqiy etga sari ilohiyot masalalarini odamlarga o'rgatadigan, ilohiyotchilarni tayyorlashga xizmat qiladigan alohida o'quv muassasiga ehtiyoj tug'iladi va shu tariqa madrasalar paydo bo'la boshladi¹.

¹ Samarqand Yer yuzining sayqqali.



Birinchi rasmiy madrasa XI asrning ikkinchi yarmida Bog‘dodda Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulk tomonidan, Markaziy Osiyoda esa huddi shu davrda Qoraxoniylar hukmdori Tamg‘och Bug‘roxon Ibrohim tomonlaridan Samarqandda qurdirilgan. O‘zining shakllanish davrida madrasa atamasi oliy o‘quv yurtini nazarda tutgan bo‘lib, uning o‘quv dasturida dastlab faqat “diniy fanlar” kiritilgan. Aytish lozimki, nafaqat Movarounnahrda, balki chet eldagi oliy ta‘lim rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan Mirzo Ulug‘bek oliy madrasasi faoliyati to‘xtagan va tugagan emas. Samarqandda ilm-ma‘rifat jarayonida hech qachon uzilish yuz bermagan.

Mirzo Ulug‘bek madrasasi-Samarqand shahrida bugungi kungacha saqlanib kelgan dunyoga mashhur Registon maydoni Mirzo Ulug‘bek madrasasi qurilishi bilan boshlangan. Amir Temur davridan boshlab Registon Samarqandning asosiy bozor maydoni va ijtimoiy markazi bo‘lgan. Ko‘plab savdo do‘konlari, karvonsaroylar va yopiq savdo timlari bo‘lib, ulardan eng kattasi Telpak-furushon timi bo‘lgan. Madrasa 1417-1420 yillarda qurilgan. Ulug‘bek madrasasi me‘moriy asar sifatida Sharqning qadimiy yodgorliklarining eng yaxshi namunasi. XV asrda Samarqand shahrida qurilgan barcha binolardan faqat Mirzo Ulug‘bek madrasasi hozirgacha saqlanib kelgan, hattoki biroz buzilgan. Madrasa ikki qavatli bo‘lib, to‘rtta hujra va to‘rt burchakda 55 hujra va katta o‘quv xonalari mavjud. 2-3 talaba maxsus hujralarda yashab, tahsil olishgan. Sinf xonalarida muayyan guruhlar uchun fan bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Mirzo Ulug‘bek buyrug‘i bilan qurilgan ushbu madrasa Sharqda birinchi o‘quv muassasasi bo‘lib, barcha imkoniyatlarga ega edi. Shuningdek, u Mirzo Ulug‘bek akademiyasi sifatida dunyoga mashhur edi. Mirzo Ulug‘bek ushbu akademiyada bir necha olimlarga dars bergan. Mashhur Samarqand rasadxonasi usta va shogirdlar uchun koinot markazining bilim sirlariga aylandi. Mirzo Ulug‘bek har bir olim bilan shaxsan suhbatlashardi va uning o‘qituvchilik faoliyatiga oid bilimlari mukammal ekanligiga ishonch hosil qilardi. Bu yerda o‘sha davrning taniqli olimlari dars berganlar: Mavlono Muhammad Xavofi, Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid, Muiniddin Koshi va boshqalar. Boshqa olimlar qatori bu yerda ham Ulug‘bek va uning shogirdi Ali Qushchi kabi turli xil fanlardan saboq berilgan. Ulug‘bek va uning hamkasblari eng taniqli ilmiy yutuqlari – bir darajali kamoning porlashini aniqlash uchun darajali algebraik tenglamaga olib keldi. Ko‘p sonli aholi punktlari koordinatalarini aniqlash, 1018 yulduz kirgan mukammal yulduz jadvalarini tuzish, soch yilini aniqlik bilan ajratish-365 kun, 6 soat, 10 daqiqa va 8 soniya, Yerga nisbatan ekliptikaning pasayishi va 5 sayyoraning orbitasini aniqlash. Natijada Samarqand



aniq fanlarni o'rganish markaziga aylandi. Madrasada o'qitish uch bosqichda o'tdi: birinchi-"ando" yoki "kichik qadam"- dastlabki bosqich. Ikkinchi bosqich-"avsat" yoki "o'rtacha", uchinchi-"a'lo", ya'ni "yuqori"bosqich. Vaqt o'tishi bilan o'quvchilar har bir bosqichda 4-5 yoshda o'qishgan.²**Ulug'bek madrasasida birinchi dars**-1420 yil (bundan 600 yil oldin)- Sharq dunyosida mashhur bo'lgan Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida birinchi dars bo'lib o'tdi. Madrasaga birinchi mudarris etib Mavlono Muhammad Havofiy tayinlangan.³ Madrasa bitishiga yaqin qolganda qurilishda ishlayotganlar Ulug'bek bu lavozimga barcha ilmlardan xabardor odamni topajagini aytadi. Shu yerdagi g'ishtlar orasida chang-loy kiyim o'tirgan Mavlono Muhammad Havofiy Ulug'bekning so'zlarini eshitib, shu mansabga o'zi munosibligini aytadi.Ulug'bek unga savollar berib, qoniqarli javob olganidan so'ng, uning bilimlaridan qanoat hosil qiladi va uni hammomga olib borib cho'miltirish va yaxshi kiyimlar kiyintirishni buyuradi. Madrasa ochilishida Mavlono Muhammad mudarris sifatida birinchi ma'ruzani o'qiydi. Bunda 90 olim va talaba hozir bo'lgan bo'lsa ham ma'ruzani faqat Ulug'bek bilan Qozizoda Rumiyy ikkovlari tushunadilar, xolos.

Sherdor madrasasi- Samarqandda Registon maydonidagi XVII asrga oid islom ma'rifiy, ma'naviy- ma'rifiy va yodgorlik diniy bino. Ulug'bek va Tillakori madrasalari bilan birgalikda yaxlit me'moriy ansamblni tashkil etadi. 2001-yilda Samarqandning diqqatga sazovor joylari qatori Yuneskonning butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bir necha asrlar davomida madrasa mashhur islomiy ta'lim muassasasi bo'lib, uning hujralarida taniqli faylasuflar va ilohiyatshunoslar tahsil olgan. Madrasa 1619-1636 yillarda Ulug'bekning demontaj qilingan xonaqohi o'rnida Ashtarxoniy Yalanto'shbiy Bahodirning buyrug'i bilan qurilgan. Qurilishga Samarqand me'mori Abduljabbor jalb qilingan, bezak berish ishlarini usta Muhammad Abbos bajargan. Madrasa peshtoqida tasvirlangan jarayon vaqt o'tishi bilan O'zbekistonning milliy ramzlaridan biriga aylandi. Sherdor madrasasi va unga qarama-qarshi joylashgan Ulug'bek madrasasining o'lchamlari amalda bir xil. Me'morning fikriga ko'ra, binolar bir-birining ko'zgu tasvirlari bo'lishi kerak edi va bu yerda o'ziga xos "kosh" texnikasi ishlatilgan. Ammo vaqt o'tishi bilan bu joy relyefi biroz o'zgargan, shuning uchun Sherdor Ulug'bek madrasasidan biroz pastroqda joylashgan. Binoning bezagi kufiy yozuvlari, Muhammad (s.a.v) payg'ambar so'zlari va Qur'oni Karimdan muqaddas so'zlari bilan bezatilgan.

² Abdulahad Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati.

³ m.anliq.uz>yangiliklar>Ulugbek-madrasasi



Sherdor madrasasi Yaponiyaning jahon tarixi darsligining muqovasidan o‘rin oldi. Samarqand shahridagi dunyoga mashhur Registon majmuasida joylashgan Sherdor madrasasi surati Yaponiya umumta’lim maktablarining “Jahon tarixi” darsligi muqovasiga joylashtirildi. Darslik Yaponiyaning eng yirik “Yamakawa Shuppansha Ltd.” Nashriyoti tomonidan tayyorlangan. Qo‘llanma aprel oyidan boshlab yangi o‘quv yilida tarix fanidan darslik sifatida foydalanish rejalashtirilgan.⁴**Sherdor madrasasidagi yozuvlar** – Sherdor madrasasining Hazrat Muhammad Ibn Ja’far Sodiq maqbaralari deb ta’riflanayotgan joyning tepasida Kufiy xatida:”Alloh Taalo aytdi” deb Suls xatida: “O‘QING EY MUHAMMAD BUTUN BORLIQNI YARATGAN ZOT BO‘LMISH RABBINGIZ ISMI BILAN”⁵.

Tillakori madrasasi – Bu madrasa Registon maydoni me’moriy majmuasining yakuniy inshootidir. U kompozitsiyaning markazida joylashgan va o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan vizual bo‘shliqni berkitadi. Qurilishi taxminan 15 yil davom etdi va 1660-yilda tugatildi. Bu bino yaxlit me’moriy uslubni yaratib, ikkita katta yon inshootni uyg‘un tarzda muvozanatlashtirdi. Tillakori nomi tarjimada “oltin bilan bezalgan” degan ma’noni anglatadi. Madrasaning barcha fasadlari chiziqli naqshlar tasvirlangan ajoyib naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, o‘z vaqtida oltinning ko‘pligi bilan hayratga solgan.

Yalangto‘sh Bahodir Sherdor madrasasini qurdirganidan o‘n yil o‘tgandan so‘ng, Ulug‘bek tomonidan qurilgan Karvonsaroyini tiklash imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, uning poydevori ustidan yangi madrasa-masjid qurdiradi. Samarqand shahridagi Registon maydonini mukammallashtirgan ushbu inshoot keyinchalik Tillakori madrasasi deb ataladi. Tillakorining qurilishi bilan Registonning ajoyib bir ansambli mukammal shaklga keldi. Ushbu obidaning me’mori maydondagi hamma binolarning yaxlit bir butun bo‘lishi ta’minlash uchun Tillakori madrasasini mavjud imoratlarga moslashtiradi. Imoratlarni qurishda o‘sha davrda qo‘llanilgan me’moriy qoida-qonunlardan chekinishga to‘g‘ri kelgan. To‘rt tomoni tutashdek tasavvur bo‘lishi uchun madrasa fasadini juda uzun qilishga to‘g‘ri kelgan.

Tillakori masjid madrasasidagi yozuvlar- Tillakori masjid madrasasida boshqa madrasalarga qaraganda asosan Payg‘ambarimiz MUHAMMAD sollallohu alayhi vasallamning muborak Hadislari yozilgan. Tillakori masjid madrasasining

⁴ www.google.com

⁵ Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimai, 2-jild.



hujralari tepasida hadislar bitilgan. Ushbu maskan ham madrasa ham masjid vazifasini bajargan. Madrasada ustozlar va talabalar jamoat namozlarini o'qishgan. Ushbu madrasada Din, Fiqh, Tarix, Falsafa, Matematika, Astronomiya, jahon tillarini o'rganishgan. Madrasa hujralarining birida: "ILM INSONNI DUNYODA AZIZ VA OXIRATDA SHARAFLI QILADI", degan hadis yozilgan. Hadisning aynan talabalar hujrasining peshtoqiga yozilganligi insonning e'tiborini tortadi. Tolibi ilmlar har gal hujralariga kirishdan oldin shu hadisni o'qishgan. Bu ularni yaxshiroq ilm olishga undagan.

Bibixonim madrasasi – Amir Temurning katta xotini Bibixonim (Saroymulkxonim) "o'z onasi sharafi"ga 14-asr oxirida Samarqandda qurdirgan Madrasa. Sayyoh, olim A.Vamberi ta'kidlashicha, bu madrasada 1000 ga yaqin talaba o'qigan. Bibixonim madrasasi Bibixonim jome masjidining kirish peshtog'i qarshisida joylashgan. Lekin jome masjididan oldin qurilgan. Saroy tarixchisi G'iyosiddin Alining "Amir Temur 1399-yil 10-mayda madrasada to'xtab o'tganligi" haqida ma'lumoti shunday dalolat beradi. Tarixnavis Fasih Havofiy ta'kidlashicha, Amir Temur jome masjidi qurilishini kelib ko'rarkan, me'moriy majmuada mutanosiblik buzilganligi – Madrasa peshtog'i va ayvoni jome masjidiga nisbatan balandroq va qiyaroq bo'lib qolganligi uchun darg'azab bo'ladi va me'morlar (Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jald)ni jazolaydi. Arxeologik qazishlar ham shu nomutanosiblikni tasdiqlaydi. Bino peshtog'i qanchalik mahobatli bo'lmasin, uning qarshisidagi binoga monand emasligi ko'zga tashlanib qolgan. Me'moriy uslub talabiga ko'ra, nomaqbul tushgan madrasa peshtog'i buzib tashlashga mahkum bo'ldi. Shuning uchun ham keyingi asrlarda Madrasa qoldiqlari buzib tashlandi.

Bibixonim madrasasi yonida unga "qo'sh" uslubda Tuman ogo xonaqohi qurilgan. Tarixiy manbalar bu xonaqoh ham 1399-yildan oldin bunyod etilganligi haqida ma'lumot beradi. Chortokli keng xonaqoh, tepasi baland gumbaz bilan bog'langan. Devorlariga manzara naqshin gullar, serhasham bezaklar ishlangan. To'rt tarafidagi keng derazalar – va eshiklar orqali xonaqoh juda yaxshi yoritilgan. Ostidagi tagxona – sardoba esa kichikroq bo'lib, devorlari yirik kulrang toshtaxtalar bilan bezatilgan. Tagxonada bir necha tosh tobutlar saqlangan. 1875-yil zilzilasi natijasida tagxona gumbazchasi o'pirilib, pastga toshtobutlar borligi ma'lum bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab aholi orasida bu tobutlardan biri Bibixonimga tegishli degan ovoza tarqaldi. 1941-yilda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar go'yo bu rivoyatni tasdiqlagandek bo'ldi. Shu sababli yaqingacha ushbu xonaqoh Bibixonim maqbarasi deb yuritilgan.



Keyingi tadqiqotlar bu muammoga aniqlik kiritdi. Bibixonim (Saroymulk xonim) Amir Temur vafotidan keying bo‘hron yillarida zaharlab o‘ldirilgan. Bu binodagi ayol jasadi esa mo‘miyolangan(demak, uzoq joydan keltirilgan) va antropolog aniqlashicha, o‘rta yoshlardagi, sochlariqora va jingalak qandaydir boshqa ayol ekan. Tuman og‘o xonaqohi Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan 1996-yilda ta‘mir etilgan.⁶

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish lozimki, madrasalar islohati masalasi oliy ma‘lumotli mutaxassislar, zukko va ilmi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish. Madrasalar asosan fiqh ilmini o‘rganishga qaratilgan edi. IX asrda mazhablar shakllanganidan keyin islom huquqiy ta‘lim tizimidagi “ijozat at-tadris va al-ifto” (“huquqiy fikrni o‘rgatish va berish uchun litsenziya”) paydo bo‘ldi. Zaminimizda yetishib chiqqan ko‘plab buyuk allomalar aynan madrasalarda ilm olishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulahad Muhammadjonov – Temur va Temuriylar saltanati.- T:Qomuslar.1994.
2. Rasul Hodizoda. Samarqandnoma. Toshkent, 2011.
3. S.G‘affarov, M.A.Yusupova, S.I.Sharipov, va M.M.Saidov. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. Samarqand,2011.
4. A.T.G‘ofurov, M.Maxkamov “Tarix fanidan ekskursiyalar o‘tkazish metodikasi”.
5. I.Jabborov.-Antik madaniyat va ma‘naviyat xazinasi.-T:O‘zbekiston.
6. Muhammad Yahyoxon Xo‘qondiy – Xo‘qandi Latif Manoqibi.- T:Movarounnahr.2018.
7. Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasi, 2-jild.Toshkent:O‘zbekiston.2013.
8. Samatov K.Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society//Theoretical &Applied Science.-2016.-№.2.-C.175-179.
9. Samatov,Khurshid.”Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society”.Theoretical & Applied Science 2(2016):175-179.
- 10.Samatov,K.(2016).Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society.Theoretical &Applied Science,(2),175-179.

⁶Zohi dov P.,Temur davrining me‘moriy qahkashoni.



11. Ulmasjonovich K.S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) // European Scholar Journal. -2021. -T.2. -№.11. -C.45-48.

12. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)". European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.

13. Ulmasjonovich, K.S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

14. www.arxiv.uz

15. www.kitob.uz

16. www.google.com

